

## INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'GZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

K.A.Abrorxonova

Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, PhD. dotsent

Rajabova Sarvinoz Shovkatjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lif fakulteti

I-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif jarayonida boshlang'ich sinflarda innovatsiya yordamida og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish to'g'risidagi masalalar ko'rib bayon etilgan.

**Kalit so'z:** nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, adabiy me'yorlar, talaffuz, intonatsiya.

Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lif tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi.

Insonning mustaqil fikrlashi jamiyatning barcha sohalarida yangiliklar, ixtiolar, betakror yondashuvlar vujudga kelishiga zamin hozirlaydi ,shu bois barcha davrlarda yosh avlod tarbiyasida uning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Umumiy o'rta ta'lif sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab- quvvatlash va ro'yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash"(1) kabi yo'nalishlar ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi . Bundan esa ta'lifning dastlabki bosqichlaridan o'quvchilar nutqini o'stirish talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lifning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash , so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Xo'sh, nutq nima? Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq og'zaki va yozma shaklda bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'g'zaki nutqini shaklantirish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini , ularning belgilarini aytish , predmetlarni

ma'lum belgilari asosida guruhash mashqlari kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'i bilan bolalar ma'lum bir mavzuda ( fasllar, maktab, sinfxona haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gaplarga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib o'z nutqlarini rivojlantiradilar.

O'quvchilarning ravon nutq egasi bo'lishlari uchun ularning , albatta, talaffuziga katta e'tibor berish lozim. Chunki ko'pgina bolalarning talaffuzlarida nuqsonlari bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasi (sh o'rniga s , r o'rniga l) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush talaffuz qiladilar va hakozo. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun ota-onalar logopedlarga murojaat qiladilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham har darsda bolalar bilan ularning diqqatini tortadigan o'yinlar va mashqlar bilan talaffuz qilish biroz mushkulroq bo'lgan so'zlar yordamida quyidagi kamchiliklarni tuzatishlari mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish uchun o'qituvchilar har xil bolalarning diqqatini jalb etadigan o'yinlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan:

sinfdagagi bolalarmi ikki guruhgaga ajratib, bir xil jarayon ifodalangan rasmlar beriladi va navbatma-navbat rasmga qarab bittadan gap aytib matn tuzish topshirigi topshiriladi. Eng chiroyli matn tuzgan jamoa o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi;

o'qituvchi qo'lida koptok bilan sinfxona o'rtada turib, istalgan o'quvchiga koptokni oshiradi va o'quvchi o'zining ismida bor harflar bilan boshlanuvchi 3ta so'z aytib yana ustoziga koptokni qaytaradi va o'yin shu tarzda davom etadi;

o'quvchilar aylana bo'lib, bir-birlariga teskari qarab, ko'zlarini mato bilan berkitib o'tiradilar. O'qituvchi aytgan ikkita bolai bir-birlariga qaraydi va biri ikkinchisida bor narsalarni tariflaydi (masalan, to'g'nag'ich bo'lsa, chiroyli, yaltiroq, kichkina, gulli va hakozo. Aynan o'zi aytilmaydi.). Qolganlar esa, uning kimligini topadi . O'yin shu tariqa davom etadi .

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun quyidagilarga amal qilish lozim :

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulatsiyasi va aniq diksiyasi (burro gapirish malakasini egallah.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallah.

Boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning og'zaki nutqi ularning yozma nutqi shaklanishida katta ahamiyat kasb etadi. L.S. Vigotskiy yozma nutqni: "Nutq bu monolog. O'quvchining oq qog'oz bilan tasavvuridagi suhbatdosh tarzida tillashihsiga, ayni zamonda og'zaki nutqning har qanday shaklida o'z-o'zidan tashqiga ta'sirlarsiz suhbatlashishi holatidir", - tarzida ta'riflaydi.

Notiqlik san'atining qadimgi yunon nazariyotchisi va pedagog, Mark Fabiy Kvintilian: "Yozma mashqlar nutqni silliqlaydi, nutqiy mashqlar esa yozish uslubini jonlantiradi. Yozma mashqlar – bamisoli tafakkur mashqlaridir. Biror vogelik yoki hodisa to'g'risida fikrlash yozma mashqlar orqali takomillashadi", - deb o'z asarlarida yozib qoldirgan. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o'rinni tutadi. Yozma nutqni o'stirish bevosita tilning grammatik qurilishi va lug'at qatlarni mukammal o'zlashtirish bilan bog'liqdir.

Yozuv darslarida ham o'quvchilarning nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. O'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish jarayonida kichik gaplar tuzib nutqlarini teranlashtiradilar. Yozma nutqni o'stirish uchun eng samarali usul kichik-kichik hikoyalarni qayta hikoyalab yozishlaridir. Bu jarayonda, nafaqat, yozma nutq, balki og'zaki nutq ham rivojlantiradi. Qayta hikoya qilish jarayonida o'quvchilar hikoyaga o'zlarining subyektiv munosabatlarini ham ifodalaydilar va bu ularning fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Ta'lim berish jarayonida o'qituvchi bolalar bilan adabiy til me'yorlariga amal qigan holda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarning ham yozma nutqi osonroq rivojlanadi.

Dars jarayonlarida o'qituvchilar bolalar bilan lug'atlar ustida ishlashi, ularning salohiyatini oshirishga yordam beradi va bu nutqlari ucun ham foydali deb hisoblayman.

Nutq o'stirish mashg'ulotlari bolalarning tafakkurini rivojlantiradi, o'zbek tilida fikrlashga o'rgatadi, fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqni mantiqiy qurish malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilar dars o'tishi bilan birgalikda turli xil metodlar yordamida bollalarning nutqi ustida ham ishlashi bu-ularning fikrlashi va intelektual salohiyatining o'sishiga yordam beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Bahodir Jovliyev "Til va adabiyot ta'limi" : 2018-yil. 4-soni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi PF-4947-soni Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. – T., 2017. – No\_6(766), 70-modda.(1)
3. A.G'ulomov, M.Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "universitet" nashriyoti.2001-y
4. Abrorhonova, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.

5. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
6. Norboy o'g'li, H. F. (2023). Umumiy o 'rta ta'lif muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO'PLAM IYUL 2023 yil. *Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.
7. Safarova P.F., Sh.Ne'matov va boshq. O'quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar.- T:Fan va texnologiya, 2011 yil. 160b. [1,2], [1,8].
8. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. (manual). Swedish, Division for Development of Teaching and Learning, Uppsala University, 2010 yil. [4,4]
9. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.
10. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang 'ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.
11. Hayitov, A. Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.
12. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompitensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.
13. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
14. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'linda innovatsiyalar*, 1(Архив№ 2).
15. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
16. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
17. Norboy o'g'li, H. F. (2023). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 37(1), 44-48.